Boburiylar davrining eng buyuk va eng noyob yodgorligi: Tojmahal

Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi bu yurt hayotining barcha jabhalarida o’zining boy merosini qoldirgan. Dehlidagi Qizil qal’a va Jome’ masjidi, Agradagi Tojmahal, Fotihpur, Sekridagi Panch Mahal ana shunday buyuk meros namunalaridir. Islom arxitekturasining eng yorqin namunalaridan biri sanaluvchi Tojmahal maqbarasi XVII asrda Agra Shahridagi Jamna daryosining sahlida barpo etilgan. Toj mahal, shunday bir joyga o’rnatilganki, u shaharning barcha nuqtalaridan ko’rinib turadi.



Shoh Jahon 2000 xil turli loyihalarni ko’rib chiqib, Tojmahalning bugungi ko’rinishi ana o’sha loyihalar ichidan tanlangan bir san’at asaridir. Obidaning turli xil rangdagi qimmatli tosh va marmarlari asosan Hindistonning farqli havzalaridan, Chin, Shri Lanka, Arab o’lkalari, Tibet va Afg’onistondan keltirilgandir. Tojmahalning yuz minglarcha chiroyli toshlar, sadaf va feruza bilan bezalgan deorlarida, yana alohida 42 dona zumrad, 142 dona yoqut, 625 dona pirlanda va 50 dona kata-katta inju joylashtirilgandir. Sharq va g’arbning shoiru yozuvchilariga ilhom manbasi bo’lgan Tojmahal, oydin kechalarda ham oydan ham yarqinroq ko’rinadi.

Shox Jahon o’z rafiqasi Mumtoz Mahal Begim xotirasiga bo’lgan muhabbatini, tasallini san’at va me’morchilikda ko’radi. Butun dunyoga muhabbat ramzi o’laroq tanilgan majmua quyoshli kunda oppoq tusga kirsa, ufq nurlari ostida qip-qizil bo’ladi, tunda esa oyning kumush shu’lasini aks ettiradi.

1983-yili YuNESKO binoni Jahon madaniy merosi ro’yxatiga kiritdi, 2007-yil Tojmahal dunyoning yangi 7 mo`jizasidan biri sifatida e’tirof etildi. Boburiylar saltanati hamda dunyo me’morchiligining eng go’zal namunalaridan hisoblanmish obida haqida qiziqarli ma’lumotlar:

• Yodgorlikning to’rt peshtoq qismiga Hattot Sardor Afandi tarafidan Yosin surasi to’la yozilgan.

• Mumtoz Mahal va Shoh Jahonning sandiqlari turgan joydagi kubba, inson og’izidan chiqqan har ovozning juda xush eshitiladigan aks sadosini yetti marta takrorlaydigan bir akustikaga egadir.

• Maqbara fasadida Allohning 99 ismini o’qish mumkin.

• Tojmahal ichida tovush 28 soniyada yo’q bo’ladi. Bino qurilayotgan mahal o’qilgan duolar havoda bir muddat “osilib turishi” va shu orqali o’ziga xos muhit paydo bo’lishi e’tiborga olingan.

• Ushbu maqbarining bog’i 9 gektar maydonni egallagan. Tojmahal majmuasi egallagan maydon 24 ta futbol maydoniga teng.

• Tojmahalning bosh gumbaziga o’rnatilgan yarim oyli oltin fleronning bo’yi 4,6 metr edi. XIX asrda u bronzadan yasalgan nusxasiga almashtirilgan.

• Turk-Islom me’morchiligining ahamiyatli qurilishlari orasida ko’rganlarni xushdan ketar darajada hayron qoldiradigan yodgorlik asari oq marmar bilan qoplagan devorlariga qadimiy naqshlar ishlangan bo’lib, buning uchun aqiq, sadaf, qahrabo, zumrad kabi 28 xildagi qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar ishlatilgan.

• Har yili dunyoning turli nuqtalaridan 3-5 millionga sayyoh Toj Mahalni ko’rgani keladi.

D. Azizova, O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi

“Ekskursiyalar” bo’limi mudiri.